-qizilo'ngachda

#Prizmatik epiteliy hujayralarining hoshiyasi nimadan iborat:

+mikrovorsinkalardan
-kiprikchalardan
-xivchinlardan
-tonofibrillalardan
-neyrofibrillalardan

#Bir qavatli ko'p qatorli hilpillovchi kiprikli epiteliy uchraydigan a'zo:

+havo o'tkazuvchi yo'llar
-ingichka ichak
-siydik pufagi
-qizilo'ngach
-me'da

#Nafas yo'llarini qoplovchi epiteliy:

+bir qavatli ko'p qatorli kiprikli
-ko'p kavatli yassi
-bir kavatli yassi
-o'zgaruvchan
-ko'pqavatli ko'p qatorli kiprikli

#Bir qavatli ko'p qatorli epiteliy hujayralarining xususiyati:

-mikrovorsinkalar tutishi
-xivchinlar tutishi
+kiprikchalar tutishi
-o'simtalar tutishi
-psevdopodiyalar tutadi

#Ko'p qavatli yassi muguzlanmaydigan epiteliy uchraydi:

-siydik pufagida
+og'iz bo'shliqida
-teri epidermisida
-kekirdakda
-ipsimon so'rg'ichda

#Ko'p qavatli yassi muguzlanuvchi epiteliy uchun xos bo'lgan qavat:

-oraliq
+muguz
-kiritma
-yopqich
-bazal

#O'zgaruvchan epiteliy uchraydigan a'zo:

- teri epidermisi
- to'g'ri ichak
- +siydik nayi
- og'iz bo'shlig'i
- me'da

#Siydik pufagi siydik bilan to'lganda epiteliy:

- ko'p qatorliga aylanadi
- muguzlanadi
- yo'qonlashadi
- +yupqalashadi
- ko'p qavatliga aylanadi

#Ekzokrin bezlar o'zining sekretini ajratadi:

- hujayralararo moddaga
- to'qima suyuqligiga
- qon yoki limfaga
- +tashqi muhit yoki bo'shliqqa
- faqat to'qima suyuqligiga

#Endokrin bezlar o'zining sekretini ajratadi:

- ichak bo'shlig'iga
- siydikka
- +qonga
- tashqimuxitga
- bronx bo'shlig'iga

#Bez hujayrasi sekretiya vaqtida o'z strukturasi to'la saqlab qoladi, bu sekretiyaning qaysi turiga xos:

- golokrin
- endokrin
- apokrin
- +merokrin
- ekzokrin

#Bez hujayrasi sekretiya vaqtida butunlay parchalanadi, bu sekretiyaning qaysi turiga xos:

- +golokrin
- apokrin
- merokrin
- endokrin
- ekzokrin

#Bezni oxirgi sekretor bo'limi seroz va shilliq hujayralar tutadi, bu bez:

- oqsilli
- shilliqli
- +aralash
- yog' bezi
- ter bezi

#Sekretor siklning sekret sintezlanish fazasi qaysi organellada amalga oshadi:

- mikronaychalarda

- +endoplazmatik to'ra
- hujayra markazida
- lizosomalarda
- sentrionlarda

#Sekretor siklining etilishi va shakllanish fazasi qaysi organellada amalga oshadi:

- +Golji kompleksida
- mitoxondriyada
- hujayra markazida
- mikronaychalarda
- polisomalarda

#Umumiy tuzilishga ega bo'lib ma'lum bir funktsiyani bajarishga ixtisoslashgan hujayra va hujayra bo'lmagan tuzilmalarga aytiladi:

- + to'qima
- organ
- sintitsiy
- xujayra
- simplast

#Elektron mikroskoplarda yorug'lik manbai;

- +electron oqimi*
- tabiiy yorug'lik
- suniy yorug'lik
- ultrabinafsha nurlari
- infraqizil nurlanish

#Epiteliy to'qimasi oziqlanadi:

- xususiy qon tomirlar xisobiga
- limfa tomirlari xisobiga
- +bazal membrana orqali diffuz yo'l bilan
- to'qima suyuqligi xisobiga
- me'da shirasi xisobiga

#Endoteliy bilan qoplanadigan a'zo:

- me'da
- ichak
- buyrak
- +yurak
- siydik qopi

#Dentin kanalchalarida qaysi hujayralarning o'simtalari joylashgan:

- +odontoblastlar
- ameloblastlar
- sementoblastlar
- fibroblastlar
- osteoblastlar

#Mezoteliy epiteliyning qaysi genetik tipiga mansub:

- angiodermal
- +selonefrodermal
- ependimogial

- epidermal
- mezenximal

#Bir qavatli ko'p qatorli kiprikli epiteliy tarkibidagi qadaxsimon hujayralarning funksiyasi:

- +sekretor
- tayanch
- kambial
- so'rish
- eritish

#Melanotsitlar epidermisning qaysi qavatida joylashadi.

- muguz
- +bazal
- donador
- yaltiroq
- epidermisda joylashmaydi

#Respirator bronxiola terminal bronxioladan farq qiladi:

- +devorida alveolalar bor
- tog'ay orolchalari bor
- silindrsimon epiteliy bilan qoplangan
- devorida mushaklar bor
- devorida bezlar tutadi

#Bir qavatli kubsimon epiteliy qayerda uchraydi.

- kekirdakda
- qizilungachda
- ingichka ichakda
- +bezlarining chiqaruv naylarida
- bachadonda

#Gemoretikulotsitlar:

- qari eritrotsitlar
- o'lgan eritrotsitlar
- +yosh eritrotsitlar
- yadro tutuvchi eritrotsitlar
- o'rta yoshli eritrotsitlar

#Neytrofil leykotsitlar tarkibidagi birlamchi (azurofil) donachalar o'zida saqlaydi:

- geparin
- gistamin
- ishqoriy fosfataza
- +kislotali fosfataza
- serotonin

#Neytrofil leykotsitlar tarkibidagi ikkilamchi (maxsus) donachalar o'zida saqlaydi:

- miyeloperoksidaza
- +ishqoriy fosfataza
- kislotali fosfataza
- gistamin
- gidrolaza

#Monotsitlar to'qimalarda qanday hujayralarga aylanadi:

- +makrofaglarga
- lipotsitlarga
- fibroblastlarga
- plazmotsitlarga
- peritsitlarga

#Odamda qon plastinkalari:

- yadroli hujayralar
- simplastlar
- sinsitiylar
- +megakariotsitlar sitoplazmasining parchalari
- megakariotsitlar yadrosining parchalari

#Epidermisda Merkel hujayralarida sinaps xosil qiladi:

- +sezuvchi neyronning dendriti
- sezuvchi neyronning aksoni
- xarakatlantiruvchi neyronning dendrite
- xarakatlantiruvchi neyronning aksoni
- asotsiativ neyronning aksoni

#Trombotsitopoez jarayonining morfologik jixatdan aniqlanishi mumkin bo'lgan eng yosh hujayrasi:

- miyeloblast
- trombotsitoblast
- +megakarioblast
- monoblast
- megakariotsit

#Soch ildizini oziqlantiradi:

- +soch so'g'oni
- soch o'qi
- soch follikulasi
- sochning mag'iz qismi
- sochning kutikulasi

#Sog'lom voyaga yetgan odamda neytrofil leykotsitlarning foiz miqdori:

- +65-75%
- 0-0.5%
- 4-8%
- 30-35%
- 80-90%

#Neytrofil leykotsitlarning asosiy vazifasi:

- +fagotsitoz
- kollagenogenez
- antitelogenez
- kislород tashish
- elastinogenez

#Sog'lom voyaga etgan odamda eozinofil leykotsitlarning qondagi foiz miqdori:

- +2-5%

- 65-75%
- 0-0.5%
- 4-8%
- 6-7%

#Eozinofil leykotsilarning allergiya jarayonidagi ishtiroki nimadan iborat:

- + gistamin va anafilaksinni emirish
- mikroblarni fagotsitoz qilish
- antitelo ishlash
- lizotsim ishlash
- gistaminni ishlab chiqish

#Sog'lom voyaga yetgan odamda bazofil leykotsitlarning qondagi foiz miqdori:

- +0-1%
- 4-8%
- 2-5%
- 65-75%
- 4-5%

#Bazofil leykotsitlar donachalari tarkibiga xos:

- +geparin va gistamin
- lizotsim va amilaza
- laktoferrin
- arilsulfataza va lipaza
- ishqoriy fosfataza

#Bazofil leykotsitlarning asosiy vazifasi:

- fagotsitoz
- antitelogenez
- gistaminni emirish
- +gistamin va geparin ishlash
- serotoninni emirish

#Sog'lom voyaga yetgan odamda limfotsitlarning qondagi foiz miqdori:

- +20-35%
- 2-5%
- 0-1.0%
- 65-75%
- 40-45%

#Odamda B-limfotsitlar xosil bo'ladi:

- +qizil suyak ko'migida
- taloqda
- limfa tugunida
- timusda
- fabritsiyxaltasida

#B-limfotsitlardan hosil bo'ladi:

- +plazmotsit
- makrofag
- fibroblast
- peritsit

-fibrotsit

#Sog'lom voyaga yetgan odamda monotsitlarning qondagi foiz miqdori:

- +6-8%
- 2-5%
- 20-35%
- 65-70%
- 10-11%

#Soch ildizining qaysi qismi yumshoq keratin tutadi:

- +mag'iz modda
- po'stloq modda
- kutukula
- soch piyozchasi
- soch so'rg'ichi

#Qon plastinkalari uchun xos bo'lmagan tuzilmalar:

- donachalar
- mitoxondriyalar
- +yadro
- mikronaychalar
- yadrocha

#Limfa suyuqligi tarkibida eng ko'p uchraydigan shaklli elementlar:

- eritrotsitlar
- monotsitlar
- +limfotsitlar
- granulotsitlar
- trombotsitlar

#Embrionda qon yaratilishi dastlab qaysi a'zoda boshlanadi:

- jigarda
- talokda
- timusda
- +sariqlik xaltachasida
- allantoisda

#Voyaga yetgan odamda universal qon yaratuvchi a'zo bu:

- jigar
- taloq
- timus
- +suyak kumigi
- limfa tuguni

#Voyaga yetgan organizmda o'zak hujayralarning asosiy manbai:

- taloq
- jigar
- timus
- +qizil suyak ko'migi
- sariqlik qopi

#Qon yaratuvchi a'zolarda mikromuxitni tashkil qiluvchi to'qima:

- +retikulyar to'qima
- yog' to'qimasi
- suyak to'qimasi
- pigment to'qimasi
- shilliqto'qima

#Eritropoez jarayonining morfologik jihatdan aniqlanishi mumkin bo'lgan eng yosh hujayrasi:

- pronormotsit
- +eritroblast
- gemoretikulotsit
- miyeloblast
- promiyelotsit

#Eritropoez jarayonida hujayra sitoplazmasida sintezlanadigan asosiy modda:

- immunoglobulin
- karbonsuvlar
- +gemoglobin
- mioglobin
- albumin

#T- va B-limfotsitlarning boshlang'ich hujayralari qaysi a'zoda hosil bo'ladi:

- timusda
- limfa tugunida
- taloqda
- +suyak kumigida
- murtaklarda

#Ichki muxit to'qimasining taraqqiyot manbai:

- mezoderma
- +mezinxima
- splanxnotom
- entoderma
- ektoderma

#Ikki tomonlama botiq disk shaklidagi eritrotsit:

- stomatsit
- exinotsit
- +diskotsit
- sferotsit
- gumbazsimon

#Ko'zning akkomodatsion apparatiga kiradi:

- shishisimon tana
- sclera
- to'r parda
- muguz parda
- +kiprikli tana

#Kiprikli tananing asosiy qismini tashkil qiladi:

- +silliq mushak hujayralar
- biriktiruvchi to'qima
- yog' hujayralari

- pigment hujayralar
- epiteliy hujayralar

#Trombotsitlarning asosiy vazifasi:

- hujayraviy immunitetni ta'minlash
- fagotsitoz
- +qon ivishida ishtirok etish
- gumoral immunitetni ta'minlash
- trofik

#Eritrotsitlarning yosh shakllari:

- sferotsitlar
- stomatotsitlar
- +gemoretikulotsitlar
- exinotsitlar
- megatsitlar

#Leykotsitlarni biriktiruvchi to'qimada xarakatlanishini belgilaydi:

- +xemotaksis
- reotaksis
- termotaksis
- fototaksis
- barotaksis

#Sekretor donachalarida maxsus kristalloidi bor hujayra:

- +eozinofil
- neytrofil
- bazofil
- eritrotsit
- limfotsit

#Bazofil leykotsitlardagi donachalarning metaxromaziyasi bog'liq:

- gistaminga
- arilsulfatazaga
- +geparinga
- argininga
- serotoninga

#Hujayraviy immunitetning effektor hujayralari:

- T-xelperlar
- T-supressorlar
- T-amplifaerlar
- +T-killerlar
- T- amplifaErlar

#Leykotsitlar orasida eng ko'p yashaydiganlari:

- neytrofillar
- eozinofillar
- +limfotsitlar
- monotsitlar
- bazofillar

#Eritropoetik qatordagi yadro tutmaydigan hujayra:

- eritroblast
- pronormotsit
- normotsit
- +gemoretikulotsit
- normotsit

#Qonning barcha shaklli elementlari rivojlanadi:

- +o‘zak hujayradan
- retikulotsitdan
- osteoblastdan
- angioblastdan
- endoteliotsitlardan

#Yangi tug‘ilgan chaqaloqlar timusi olib tashlanganda sodir bo‘ladi:

- +limfoid a‘zolarning atrofiyasi
- kichik limfotsitlarning ko‘payishi
- immunitetning kuchayishi
- qonda leykotsitlarning ko‘payishi
- limfa tugunlarning kattalashishi

#Rus olimi I. M. Sechenov arteriolalarni nima deb atagan:

- “Ajoyib to‘r”
- +“Qon tomirlar jo‘mrangi”
- magistral qon tomirlar
- markaziy qon tomirlar
- tutashuvchi qon tomirlar

#Chig‘anoqning spiral gangliyida joylashgan:

- +bipolyar neyronlar
- pseudounipolyar neyronlar
- multipolyar neyronlar
- unipolyar neyronlar
- gorizontal neyronlar

#O‘zak hujayralar qaysi hujayralarga o‘xshaydi:

- +limfotsitlarga
- monotsitlarga
- makrofag
- makrofaglarga
- eritrotsitlarga

#Yelka venasi qaysi turdagi qon tomirga mansub:

- mushaksiz venalarga
- mushak elementlari kuchsiz rivojlangan venalarga
- mushak elementlari kuchli rivojlangan venalarga
- +mushak elementlari o‘rtacha rivojlangan venalarga
- mikrotsirkulyator qon tomirlarga

#Urug‘lanish davomida kortikal reaksiyaning mohiyati:

- +polispermiyaning oldi olinadi
- akrosomal fermentlar tashqariga chiqadi

- nurli toj hujayralari emiriladi
- yaltiroq parda emiriladi
- spermatozoidning aktivligi oshadi

#Gastrulatsiyaning ikkinchi fazasi davomida hosil bo'ladi :

- +birlamchi tasma
- blastomerlar
- trofoblast
- embrioblast
- sariqlik qopchasi

#Qonda qaysi shaklli elementlar stomatotsitlarga aylanishi mumkin:

- +eritrotsitlar
- monotsitlar
- trombotsitlar
- bazofil granulotsitlar
- limfotsitlar

#Makrofaglar hosil bo'ladi:

- +monotsitlardan
- limfoblastlardan
- fibroblastlardan
- retikulyar xujayralardan
- labrotsitlardan

#Makrofaglarning asosiy vazifasi:

- +fagotsitoz va immun reaksiyalarda ishtrok etish
- antitelolar ishlab chiqarish
- xujayralararo modda sintezlash
- tayanch va trofik
- qon xosil qilish

#Plazmatik hujayralarni hosil qiladi:

- +B-limfotsitlar
- T-limfotsitlar
- monotsitlar
- retikulotsitlar
- limfoblastlar

#Plazmatik hujayralarning asosiy vazifasi:

- +immunoglobulinlarni ishlab chiqarish
- geparin va gistamin ishlab chiqarish
- fagotsitoz
- tolalar va xujayralararo moddani sintezlash
- serotonin ishlabchiqarish

#Yog' hujayralari xosil bo'ladi:

- +adventitsial hujayralardan
- plazmatik hujayralardan
- limfoblastlardan
- monotsitlardan
- peritsitlardan

#Pigment hujayralarining taraqqiyot manbai:

- +nerv qirradi
- mezenxima
- epiteliy
- o'zak xujayra
- nervplastinkasi

#Melanin sintezlovchi hujayra:

- +melanotsitlar
- melanoforlar
- melanotropotsitlar
- adipotsitlar
- retikulyarxujayralar

#Biriktiruvchi to'qimaning pishiqligini ta'minlaydi:

- +kollagen tolalar
- elastik tolalar
- retikulyar tolalar
- xondrin tolalari
- argirofil tolalar

#Qo'ng'ir yog' to'qimasi ko'proq uchraydi:

- +yangi tug'ilgan chaqaloqlarda
- qariyalarda
- homiladorlikda
- ayollarda laktatsiya davrida
- patologik xollarda

#Siyrak tolali biriktiruvchi to'qimaning elastikligi va cho'ziluvchanligini ta'minlaydi:

- +elastik tolalar
- kollagen tolalar
- retikulyar tolalar
- argirofil tolalar
- xondrintolalar

#To'qima bazofillaridan biologik aktiv moddalarning tashqariga chiqarilish jarayoni:

- +degranulyatsiya
- ekskretsiya
- sekretsiya
- granulyatsiya
- apoptoz

#Suyak to'qimasining rivojlanishi qanday ataladi:

- +osteogistogenez
- osteomalyatsiya
- osteoporoz
- osteofibroz
- rezorbtsiya

#Yallig'lanish soxasida ko'p uchraydigan hujayra:

- +leykotsit

- monotsit
- bazofil
- eozinofil
- trombotsit

#Chin tovush bog'lamlarini hosil qiladi:

- +elastik tolalar
- kollagen tolalar
- retikulyar tolalar
- xondrin tolalar
- osseintolalar

#Mushak to'qimasida mioglobinning vazifasi :

- mexanik-tayanch
- +kislородni bog'lash
- miocyt'larni o'zaro bog'lash
- trofik
- qisqarish

#Tog'ay to'qimasining taraqqiyot manbai:

- +mezenxima
- ektoderma
- plakodalar
- miotom
- dermatom

#Timusning mag'iz moddasi:

- +retsirkulatsiya qiluvchi T-limfotsilar tutadi
- gematotimus to'sig'ini tutadi
- T-limfotsitlar zich joylashgan
- preparatlarda to'q bo'yalgan
- T-limfotsitlar tutmaydi

#Tog'ay to'qimasi quyidagilardan tuzilgan:

- +xondrotsit, xondroblast va hujayralararo modda
- xondrotsitlar, retikulyar tolalar va qon tomirlari
- xondrotsitlar va xondroblastlar
- xondrotsitlar, xondroblastlar va qon tomirlar
- xondrotsit, osteoblast va hujayralararo modda

#Gialin tog'ay to'qimasi uchraydi:

- +xavo o'tkazuvchi yo'llar
- quloq suprasi
- umurtqalararo disk
- paylarda
- aponevrozlarda

#Elastik tog'aydan tuzilgan:

- +quloq suprasi tog'ayi
- bo'g'im yuzasi tog'ayi
- traxeyaning fibroz-tog'ayqavati
- umurtqalararo disklar

-bronxlardevori

#Tolali tog'ay to'qimasi uchraydi:

- quloq suprasida
- bo'g'im yuzasi tog'ayida
- havo o'tkazuvchi yo'llarda
- +umurtqalararo diskda
- traxeyada

#Umurtqalararo disklar tashkil topgan:

- gialin tog'aydan
- elastik tog'aydan
- +tolali tog'aydan
- retikulyar to'qimadan
- pulpozyadrolardan

#Traxeya devorida joylashgan tog'ay turi:

- +gialin
- elastik
- tolali
- retikulofiboz
- fibroz

#Miosimplast bu:

- +ko'p yadroli mushak tolasi
- 1-2 yadroli mushak xujayrasi
- miofibrillaning struktur birligi
- kambial xujayra
- mushakning qisqaruvchi apparati

#Suyak to'qimasining quyidagi turi farqlanadi:

- +retikulofibroz
- tolali
- fibroz
- gialin
- elastik

#Tog'ay modeli o'rnida suyak hosil bo'lishi naysimon suyakning quyidagi qismidan boshlanadi:

- +diafiz
- epifiz
- metafiz
- metaepifizar plastinka
- epifizar plastinka

#Quyidagi hujayralarning qaysi biri qondagi monotsitlardan xosil bo'ladi:

- osteoblast
- osteotsitlar
- +osteoklast
- xondroblast
- xondrotsit

#Suyak usti pardasida piramidasimon shaklli, ishqoriy fosfataza fermentining faolligi yuqori bo'lgan hujayra bu:

- +osteoblast
- osteotsit
- osteoklast
- xondroblast
- fibroblast

#Burmador-xoshiyali yuzaga ega, ko'p yadroli suyak to'qimasiga tegishli hujayraning nomini ko'rsating:

- osteoblast
- osteotsit
- +osteoklast
- xondroblast
- xondrotsit

#Suyak to'qimasining parchalanishini amalga oshiradigan hujayra:

- +osteoklast
- osteotsit
- osteoblast
- xondroblast
- xondrotsit

#Suyak to'qimasining hujayralararo moddasini sintezlaydi:

- +osteoblastlar
- fibroblastlar
- xondroblastlar
- osteotsitlar
- xondrotsitlar

#Suyak to'qimasining hujayralararo moddasi tuzilgan:

- +kollagen tolalar va amorf moddadan
- elastik tolalar va amorf moddadan
- kollagen va retikulyar tolalardan
- osteoblastlar va retikulyar tolalardan
- retikulyar tolalar va amorf moda

#Osteonlar orasida joylashadi:

- +oraliq plastinkalar
- bazal membrana
- tashqiumumiy plastinkalar
- Ichki umumiy plastinkalar
- endost

#Oraliq plastinka, bu:

- +parchalangan osteonlarning qoldiqlari
- tashqiumumiy plastinkalarning davomi
- ichki umumiy plastinkalarning bir qismi
- osteotsitlarni birlashtiruvchi tuzilma
- oraliquumiyplastinkalarning davomi

#Osteon, bu:

- hujayra
- tola
- hujayralararo modda
- +struktur-funksional birlik
- suyaklar tutami

#Ko'ndalang-targ'il skelet mushak tolasining qisqaruvchi apparatini hosil qiladi:

- +miofibrilla
- sarkoplazma
- yadro
- sarkolemma
- sitolemma

#Ko'ndalang-targ'il skelet mushak tolasining trofik apparatini hosil qiladi:

- yadro va miofibrilla
- miofibrilla va mitoxondriya
- +yadro va organellalar
- sarkolemma
- sarkoplazma

#Mushak to'qimasi preparatida duksimon shaklli, markazida cho'ziq tayog'chasimon yadro tutgan hujayralar ko'rinmoqda, bu:

- +silliq mushak to'qimasi
- ko'ndalang-targ'il yurak mushagi
- ko'ndalang-targ'il skelet mushagi
- mioepitelial hujayralar
- mushak duklari

#Miofibrillar tuzilgan:

- +aktin va miozin protofibrillaridan
- aktin protofibrillalari va nozik kollagen tolalardan
- oraliq plastinkalar va miozindan
- aktin vanebulin oqsillaridan
- aktin protofibrillalari va nozik elastik tolalardan

#Ingichka protofibrillar tutadigan oqsil:

- +aktin
- miozin
- nebulin
- protonin
- arginine

#A-disk o'zida tutadi:

- +miozin va qisman aktin
- miozin iplari va T-naychalar
- aktin va oraliq plastinkalar
- faqatgina aktin iplari
- aktin va qismanmiozin ipchalari

#I-disk o'zida tutadi:

- +faqat aktin iplari
- faqat miozin iplari

- aktin va miozin iplari
- oraliq plastinkalar
- tubulin oqsili

#Koʻndalang-targʻil skelet mushak tolasi tuzilgan:

- +miosimplast va miosatellitotsitlardan
- faqat miosimplastdan
- faqat miosatellitotsitlardan
- miosiplast va sarkolemmadan
- miosintitsiy va miosatellitotsitlardan.

#Miosatellit hujayralarining vazifasi:

- qisqarish
- impuls oʻtkazish
- ximoya
- +kambial
- fagotsitoz

#Koʻndalang-targʻil skelet mushagidan iborat:

- +til
- miokard
- meʻdaning mushak pardasi
- bachadon miometriysi
- qovuq mushagi

#Koʻndalang-targʻil skelet mushagining energetik apparatini hosil qiladi:

- +sarkosoma
- sarkolemma
- sarkoplazma
- sarkomer
- sarkoplazmatikretikulum

#Mezenximadan rivojlanadigan mushaklar:

- mioepiteliotsitlar
- +silliq mushaklar
- koʻndalang-targʻil mushaklar
- yurak mushaklari
- sintitsiy

#Simplast tuzilishiga ega:

- yurak mushagi
- silliq mushak
- +skelet mushagi
- mioepitelial hujayralar
- mushak duklari

#Miofibrillaning morfofunktsional birligi:

- +sarkomer
- mion
- miosimplast
- miofibrilla
- osteon

#Skelet mushak to'qimasining regeneratsiyasini ta'minlaydi:

- miosimplast
- mioblast
- miofibrilla
- +miosatellitotsit
- sintitsiy

#Mushak tolalari guruxlari nima bilan o'ralgan

- endomiziy
- +perimiziy
- epimiziy
- sarkolemma
- perinevriy

#Nerv to'qimasining taraqqiyot manbai:

- +ektoderma
- entoderma
- mezoderma
- mezenxima
- splanxnatom

#Mikrogliyaning taraqqiyot manbai:

- +monotsitlar
- megakariotsit
- neyroblast
- spongioblast
- eritroblast

#Etuk organizmda uchramaydigan neyronlar:

- +unipolyar
- bipolyar
- multipolyar
- pseudounipolyar
- unipolyarvabipolyar

#Neyron sitoplazmasining maxsus tuzilmalari:

- +neyrofibrilla
- tonofibrilla
- miofibrillalar
- mikrofibrilla
- mikronaychalar

#Ranvy bo'g'liqlari uchraydi:

- +miyelinli nerv tolasida
- miyelinsiz nerv tolasida
- neyronlararo sinapslarda
- erkin nerv oxirlarida
- erkinbo'lmagan nerv oxirlarida

#Miyelinli nerv tolalari uchun xos:

- +impulsning sakrab-sakrab saltator o'tkazilishi

- impulsning bir tekisda o'tkazilishi
- impulsning sekin o'tkazilishi
- impuls o'tkazmaslik
- impulsning notekisda o'tkazilishi

#Nerv oxirlarining quyidagi turi farq qilinadi:

- vegetativ
- oraliq
- +retseptor
- assotsiativ
- komissural

#Nerv to'qimasining tarkibiy qismi:

- +neyron va neyroglia
- neyronlar va sinapslar
- neyroglia va nerv oxirlari
- neyroglia va neyroblastlar
- neyronlar va nerv oxirlari

#Medulloblastlardan xosil bo'luvchi hujayralar:

- +neyroblast va spongioblast
- neyrotsitlar va mikroglitsitlar
- mikroglitsitlar va melanotsitlar
- xromafin xujayralar
- melanoforlar

#Tuxumdonning etuk follikulasi qaysi tuzilmadan xosil bo'ladi:

- +primordial follikuladan
- atretik follikuladan
- oq tanadan
- sariq tanadan
- donador qavat hujayralaridan

2 ta javobli

#Neyronning maxsus tuzilmalarini ko'rsating:

- +bazofil modda
- +neyrofibrillalar
- miofibrillalar
- Golji majmuasi

#Erkin bo'lmagan nerv oxirlari tuzilgan:

- +o'q silindr tarmoqlaridan
- +lemmotsitlardan
- biriktiruvchi to'qimali kapsulaga o'ralgan o'q silindrdan
- astrotsitlardan

#Mielinli nerv tolalari uchun xos:

- +qo'zg'alishni saltatoro'tkazish
- +impulsni o'tkazish tezligi yuqori
- qo'zg'alishnibir tekis o'tkazish

-qo'zg'alishnisekin o'tkazish

#Periferik nerv tarkibida bo'ladi:

- +mielinli va mielinsiz nerv tolalari
- +biriktiruvchi to'qimali tutamlar
- faqat mielinli nerv tolalari
- neyron va nerv tolalari

#Keltirilgan tomirlarning qaysilari elastik tipidagi arteriyaga kiradi:

- +aorta
- +o'pka arteriyasi
- uyqu arteriyasi
- yurak arteriyalari

#Mushak elementlari kuchli rivojlangan venalarni ko'rsating:

- +pastki kavak
- +son
- yuqorigi kavak
- elka

#Son venasining endoteliy osti qavati tashkil topgan:

- +siyrak tolali biriktiruvchi to'qimadan
- +silliq mushak hujayralarining bo'ylama qavatidan
- zich tolali biriktiruvchi to'qimadan
- silliq mushak hujayralarining sirkulyar qavatidan

#Gemolimfatik tugunlarning limfa tugunlaridan farqi:

- +limfatik follikulalari kam
- + mag'iz sinuslari keng
- po'stloq moddasining hajmi katta
- limfatik follikulalar ko'p, trabekulalari qalin

#Yosh o'tgan sari limfa tugunlarda:

- +germinativ markazlar yo'qoladi
- +kapsula qalinlashadi
- trabekulalar soni kamayadi
- kapsula yupqalashadi

#Timusdan kelgan T-limfotsitlar joylashadi:

- +limfatik tugunlarning parakortikal zonasida
- +taloqning oq pulpasida
- limfatik tugunlarning ko'payish markazida
- limfatik tugunlarning mag'iz tasmalarida

#Timusdagi T-limfotsitlarning mikroo'ramini hosil qiladi:

- +retikulo epithelial hujayralar
- +makrofaglar
- retikulotsitlar
- neytrofillar

#Limfatik tugunlarning parakortikal zonasida ko'p bo'ladi:

- +interdigitirlovchi hujayralar

- +T- limfotsitlar
- B-limfoblastlar
- granulotsitlar

#Dermaning so'rg' ichli qavatida quyidagi hujayralar uchraydi:

- +makrofaglar
- +to'qima bazofillari
- melanotsitlar
- adventitsial hujayralar

#Ichak vorsinkalari tarkibiga kiradi:

- +epiteliy
- +silliqliq mushak hujayralari
- myoepitelial hujayralar
- bezlar

#Jigar qon bilan ta'minlanadi:

- +jigar arteriyasidan
- +darvoza venasidan
- darvoza va jigar venasidan
- jigar arteriya va venasidan

#Jigar sinusoid kapillyarlari devorida bo'ladi:

- +Kupfer hujayralari
- +endoteliotsitlar
- lipotsitlar
- gepatotsitlar

#Urug' olib chiquvchi naylarning epitelial hujayralarining turlari:

- +kiprikli
- +sekretor
- bazal
- qadahsimon

#Gipofizning bazofil hujayralariga kiradi:

- +tireotrop
- +gonadotrop
- kortikotrop
- somatotrop

#Implantatsiyada qanday jarayonlar sodir bo'lishini ko'rsating:

- +adgeziya
- +invaziya
- delaminatsiya
- kapatsitatsiya

#Sariqlik qopchasining taraqqiyot manbalari:

- +homiladan tashqarigi entoderma
- +homiladan tashqarigi mezoderma
- homiladan tashqarigi ektoderma
- homila entodermasi

#Sariqlik qopi devoridagi qavatlar:

- +epitelial
- +biriktiruvchi to'qima
- fibroz
- elastik

#Odam yo'ldoshi qaysi tuzilmalardan shakllanadi?

- +xoriondan
- +bachadonning shilliq pardasidan
- allantoisidan
- homiladan tashqarigientodermadan

#Osteoklastlarning o'ziga xos belgilari:

- +ko'p yadroli
- +lizosomalar soni ko'p
- organellalar sust rivojlangan
- tsitoplazmasidagi maxsus donachalari

#Miofibrillalar nimadan tuzilgan:

- +aktin filamentlaridan
- +miozin filamentlaridan
- tubulindan
- mioglobindan

#Ko'ndalang-targ'il mushak tolasi tashkil topgan:

- +miosimplastlardan
- +miosatellitotsitlardan
- faqat miosimplastlardan
- mushak hujayralaridan

#Miosimplast triadasida bo'ladi:

- +sarkoplazmatik to'rning oxirgi sisternalari
- +T- naycha
- sarkosomalar va T-naychalar
- donadorendoplazmatik to'r tsisternalari

#Sarkolemma tuzilgan:

- +bazal membranadan
- +simplast plazmolemmasidan
- faqat bazal membranadan
- T-naycha va bazal membranadan

#Nerv tolalarining mielinli qavatida bo'ladi:

- +lipidlar
- +oqsillar
- neyron o'siqchalari
- neyrofibrillalar

#Qisqarish jarayonida sarkomerda sodir bo'ladi:

- +I-disklar qisqaradi
- +H-zona qisqaradi
- I-disk va H-zonalar kengayadi

-A-disk torayadi

#Miyacha neyronlari shakliga ko'ra bo'ladi:

- +noksimon
- +yulduzsimon
- savatchasimon
- piramidasimon

#Qon kapillyarlari devorida bo'ladi:

- +peritsitlar
- +endoteliotsitlar
- miotsitlar va peritsitlar
- endoteliotsitlar va miotsitlar

#Qizil suyak ko'migidagi mikromuhit hujayralari:

- +makrofaglar
- +retikulotsitlar
- fibroblastlar
- adipotsitlar

#Timus aksidental involyutsiyasida:

- +po'stloq va mag'iz moddasining chegarasi aniq emas
- +limfotsitlar parchalanadi
- po'stloq va mag'iz moddasining chegarasi aniq
- limfotsitlar proliferatsiyasi kuzatiladi

#Timusning po'stloq moddasidagi asosiy hujayralari:

- +T-limfotsitlar va T-limfoblastlar
- +epitelioretikulotsitlar
- T-limfoblastlar va retikulyar hujayralar
- epitelioretikulyar va plazmatik hujayralar

#Taloqdagi limfoid follikulalarining ko'payish markazida joylashgan:

- +retikulyar hujayralari, B-limfoblastlar
- +makrofaglar, dendritik hujayralar
- limfotsitlar va plazmotsitlar
- T-limfotsitlar, interdigitirlovchi hujayralar

#Sekretsiya turiga ko'ra ter bezlari bo'ladi:

- +merokrin
- +apokrin
- merokrin va golokrin
- faqat apokrin

#Qizilo'ngachning tashqi pardasi:

- +ko'krak qismida adventitsial
- +qorin qismida –seroz
- faqat adventitsial
- ko'krak qismida seroz, qorin qismida adventitsial

#Immun jarayonda ishtirok etuvchi biriktiruvchi to'qima hujayralari:

- + makrofaglar

- +plazmotsitlar
- fibroblastlar
- adipotsitlar

#Zich tolali biriktiruvchi to'qimaning asosiy hujayralari:

- +fibrotsitlar
- +fibroblastlar
- retikulotsitlar
- plazmotsitlar

#Qaysi ichki a'zolarida ko'ndalang-targ'il mushak to'qimasi bo'ladi?

- +yurakda
- +qizilo'ngachda
- siydik qopida
- bachadonda

#Astrotsitlarning vazifasi:

- +tayanch
- +neyronlarni izolyatsiya qilish
- sekretor
- mielinli nerv tolalarining pardasini qosil qilish

#Orqa miya neyronlari ichida farqlanadi:

- +tutamli
- +ildizchali
- piramidasimon
- donador

#Aortaning o'rta qavatida bo'ladi:

- +silliq miotsitlar
- +elastik tolalar
- ko'ndalang-targ'il mushak tolalari
- ichki elastik membrana

#Darchali elastic membranalar bo'ladi:

- +elastik tipidagi arteriyalarda
- +aralash tipidagi arteriyalarda
- mushak tipidagi arteriyalarda
- mushak elementlari kuchli rivojlangan venalarda

#Qaysi venalarda klapanlar bo'ladi:

- +son
- +elka
- darvoza
- yuqori kavak

#Limfatik tugunlarning po'stloq moddasida qanday limfatik sinuslar joylashgan:

- +kapsula osti
- +oraliq
- trabekulalararo
- markaziy

#Taloqning oq pulpasi tarkibiga kiradi:

- +limfatik follikulalar
- + markaziy arteriya
- pulpar tasmalar
- trabekulalar

#Limfotsitlarning antigenga bog'liq bo'lmagan differentsirovkasi qayerda amalga oshiriladi:

- +timusda
- +qizil suyak ko'migida
- taloqda
- limfatik tugunlarda

#Teri dermasining qavatlari:

- +so'rg'ichsimon
- +to'rsimon
- donador
- yo'q

#Merokrin tipida sekretsizalanadigan bezlar:

- +so'lak
- +me'da osti
- sut
- yo'q

#Traxeyaning shilliq osti pardasida bo'ladi:

- +oqsil-shilliq bezlar
- +qon tomirlar
- limfoid follikulalar
- elastik tolalarning bo'ylama qatlamlari

#Ovoz bog'lamlari:

- +ko'p qavatli yassi epiteliy bilan qoplangan
- +ko'ndalang-targ'il mushak tolalari tutadi
- elastik tog'ay tutadi
- silliq mushak hujayralari tutadi

#Qaysi bronxlarda bezlar bo'ladi?

- +yirik
- +o'rta kalibrdagi
- mayda
- terminal bronxiolalarda

#Peyer pilakchalari epiteliysida uchraydi:

- +tukli hujayralar
- +M - hujayralar
- makrofaglar
- Panet hujayralari

#Dentindagi kollagen tolalar yo'nalgan:

- +radial
- +tangentsial
- ko'ndalang

-sirkulyar

#Siydik qopi shilliq pardasidagi qavatlarni ko'rsating:

+o'zgaruvchan epiteliy

+xususiy plastinka

-mushak plastinka

-elastik membrana

#Tish kurtagini tish xaltachasidan rivojlanadi:

+sement

+periodont

-tish pulpasi

-dentin

#Qaysi bezlarda seroz yarim oylar bo'ladi?

+jag' osti

+til osti

-quloq oldi

-barchasida

#Me'da-ichak yo'lida quyidagi epiteliy turlari uchraydi:

+bir qavatli prizmatik jiyakli

+ ko'p qavatli yassi muguzlanmaydigan

-o'zgaruvchan

-ko'p qatorli prizmatik

#Spiral Kortiev a'zosi tashkil topgan:

+retseptor hujayralardan

+tayanch hujayralardan

-bazal hujayralardan

-kambial hujayralardan

#Nog'ora bo'shliqning medial devorida bor:

+oval darcha

+yumaloq darcha

-Yevstahiy nayi

-nog'ora parda

#Ko'zning shishasimon tanasida bo'ladi:

+vitrein oqsili

+gialuron kislotasi

-kristallin oqsili

-glikozoaminoglikanlar

#Buyrak usti bezi mag'iz moddasi:

+ganglioz plastinkadan rivojlanadi

+xromaffin hujayralar tutadi

-epitelil hujayralar tutadi

-funktsiyasi kortikotrop gormon tomonidan rivojlanadi

#Angiotenzin II:

+o'pka kapillyarlarining endoteliy hujayralari sintezlaydi

- +vazokonstriktor hisoblanadi
- 2-tipdagi alveolotsit sinezlaydi
- vazodilyatator hisoblanadi

#I-tipdagi alveolotsitlar:

- +yassi hujayralar;
- +gazlar almashinuvida ishtirok etadi
- terminal bronxiola devorida uchraydi
- ektodermadan kelib chiqadi.

#II- tip alveolotsitlar:

- +entodermadan hosil bo'ladi
- +surfaktant komponentlarini sintezlaydi
- alveolalar yuzasining asosiy qismini qoplaydi
- gazlar almashinuvida ishtirok etadi

#Surfaktant vazifasi:

- +taranglik kuchini kamaytirish
- +aerogematik to'siq tarkibiga kirish
- alveolotsitlar regeneratsiyasini stimullash
- taranglik kuchini kuchaytirish.

#Klar hujayralari:

- +surfaktant parchalashda ishtirok etadi
- +electron zich granulalar saqlaydi
- alveolotsitlar orasida yakka-yakka joylashadi
- kiprikchalar tutadi.

#II-tip alveolotsitlarning o'ziga xos tuzilishi:

- +agranulyar endoplazmatik to'r yaxshi rivojlangan
- +sitoplazmada osmiofil granulalar tutadi
- bazofil granulalar tutadi
- peroksisomalari ko'p

#O'rta kalibrdagi bronxning yirik kalibrdagi bronxdan farqi:

- +shilliq qavati yupqalashadi
- +elastik tog'ay orolchalari tutadi
- fibroz-tog'ay pardasi bo'lmaydi
- qadahsimon hujayralar ko'proq bo'ladi

#Hiqildoq devorida bo'lmaydi:

- +mushak qavati
- +shilliq osti qavati
- fibroz-toqay qavati
- shilliq qavat.

#Alveolyar makrofaglar:

- +mononuklear fagotsitar sistemaga kiritilgan;
- +alveolalararo biriktiruvchi to'qimada uchraydi;
- alveolalar bo'shlig'iga o'tmaydi;
- alveolotsitlar regeneratsiyasini stimullaydi.

#Alveolalararo biriktiruvchi to'qimada uchraydi:

- +fibroblastlar;
- +makrofaglar;
- xondroblastlar;
- qadahsimon hujayralar.

#Fibroz-tog'ay parda mavjud:

- +yirik kalibrdagi bronxlarda;
- +traxeyada;
- respirator bronxiolalarda;
- terminal bronxiolalarda.

#Nafas yo'llaridagi bezlar:

- +shilliq osti qavatida joylashgan
- +oqsil-shilliq tabiatga ega
- shilliq qavatining xususiy plastinkasida joylashgan;
- sof shilliq sekret ishlab chiqaradi.

#Terminal bronxiola:

- +bez tutmaydi;
- fibroz-tog'ay qavati bo'lmaydi;
- qadahsimon hujayralari ko'p;
- mushak plastinkasi kuchli rivojlangan.

#Epidermisning yaltiroq qavati yaxshi rivojlangan:

- +kaft terisida;
- +tovon terisida;
- bosh terisining sochli qismida;
- qovoq terisida.

#Ter bezlari o'zidan sekret mahsulotni chiqarishiga ko'ra:

- +merokrin;
- +apokrin;
- golokrin;
- aralash.

#Yog' bezlari uchramaydi:

- +kaft terisida;
- +tovon terisida;
- bosh terisining sochli qismida;
- ko'krak sohasining terisida.

#Soch piyozchasi:

- +soch ildizining kengaygan qismi;
- +sochning o'suvchi qismi;
- soch ildizining soch o'qiga o'tish qismi;
- soch ildizining biriktiruvchi to'qimali pardasi.

#Sochning po'stloq moddasi:

- +sochning asosiy qismini hosil qiladi;
- +muguzlanish jarayoni tez sodir bo'ladi;
- mayin sochlarda uchramaydi;

-muguzlanish jarayoni sekin kechadi.

#Teri osti yog' kletchatkasi xususiyatlarini ko'rsating:

- +dermaning davomi;
- +yog' to'qimasining to'plami;
- melanin sintezida qatnashadi.
- epidermisning davomi.

#Mikrovorsinka -bu:

- +plazmolemma bilan chegaralangan sitoplazm o'simtalari
- xivchinlar tarkibiy qismi
- kiprikchalar tarkibiy qismi
- +ingichka ichak epitelotsitlari tarkibiy qismi

#Lizosomalarning funktsiyalari:

- +hujayra ichi hazmlanish jarayonida qatnashish
- +fagotsitozda qatnashish
- sitoskeletni qosil qilish
- lipidlar sintezida qatnashish

#Yadro quyidagi vazifalarni bajaradi:

- +irsiy axborotni saqlash va uzatish
- lizosomalarni xosil qilish
- +oqsil sintezini boshqarish
- ribosomalar sintezi

#Yadro qobig'i tarkibiga kiradi:

- +perinuklear bo'shliq bilan ajralgan ikki membrana
- +yadro teshigi
- yadrocha
- mikronaychalar

#Akrosoma quyidagi fermentlarni tutadi:

- +tripsin
- maltaza
- +gialuronidaza
- amilaza

#Tuxum hujayra qobig'i follikulyar hujayralari quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

- +himoya
- ekskretor
- +trofik
- urug'lanish qobig'ini qosil qiladi

#Spermatozoid xivchini quyidagilardan hosil bo'lgan:

- +aksonema
- +sentiola
- akrosoma
- polisoma

#Zigotaning maydalanish turi nimaga bog'liq:

- kortikal granulalar soni

- +sariqlik kiritmasi miqdori
- hujayrada organellalarning taqsimlanishi
- +hujayrada sariqlikning taqsimlanishi

#Gastrulyatsiyaning ilk davri quyidagilarni hosil bo'lishi bilan xarakterlanadi:

- +ektoderma
- mezoderma
- +entoderma
- mezenxima

#Amnion devorini hosil qiladi:

- +homiladan tashqari ektoderma
- +homiladan tashqari mezoderma
- homiladan tashqari entoderma
- homila entodermasi

#Sariqlik xaltasini hosil qiladi:

- homiladan tashqari ektoderma
- +homiladan tashqari mezoderma
- +homiladan tashqari entoderma
- homila entodermasi

#Amnion funktsiyalari:

- +homila uchun suvli muhit yaratish
- nafas olish
- +mexanik qimoya
- birlamchi jinsiy hujayralarni xosil qilish

#Donasiz leykotsitlarga kiradi:

- +limfotsit
- neytrofil
- eozinofil
- +monotsit

#Asl biriktiruvchi to'qima turiga kiradi:

- +zich tolali biriktiruvchi to'qima
- yog' to'qimasi
- retikulyar to'qima
- +siyrak tolali biriktiruvchi to'qima

#Tog'ayning oziqlanishini ta'minlaydi:

- +perixondr qon tomirlari
- + sinovial suyuqlik
- tog'ay to'qimasi qon tomirlari
- gidrofil hujayralararo modda

#Neyrofibrillalarning funktsiyalari:

- +sitoskeletni hosil qilish
- oqsil sintezi
- +aksonal transport
- mediatorlar sintezi

#O'zida tigroid modda tutmaydi:

- perikarion
- dendritlar
- +akson
- +akson tepaligi

#Quyidagi javoblardan membranali organellarni belgilang:

- +mitoxondriya
- +endoplazmatik to'r
- sentiola
- ribosomalar

#Membranali organellalarga qaysi organellar kiradi:

- +lizosomalar
- +peroksisomalar
- mikrofilamentlar
- mikronaychalar

#Membranali organellalarni ko'rsating:

- +mitoxondriya
- +kompleks Golji
- liposomalar
- ribosomalar

#Mitoxondriyalarning tuzilishi:

- +ichki membranasi kristalar hosil qiladi
- +xususiyy genetik apparati bor
- ribosomali sitoplazma ribosomalariga o'xshash
- tashqi membranasi kristalar hosil qiladi

#Mitoxondriyalarga xos xususiyatlarni ko'rsating:

- +bo'linib yangilanadi
- +kristalarda kislotali fosforlanish sodir bo'ladi
- tashqi membrana kristalar hosil qiladi
- matriksida nukleoid bor

#Lizosomalar– bu:

- +membrana bilan o'ralgan
- +gidrolitik fermentlar tutuvchi organella
- kristalloidlarga ega
- bo'linish yo'li orqali qayta yangilanadi

#Hujayralararo birikmalar turlarini ko'rsating:

- +oddiy birikmalar
- +desmosoma
- murakkab birikmalar
- diktiosoma

#Qanday birikmalar hujayralararo birikmalar turlariga kiradi:

- +zich birikmalar
- +tirqishsimon birikmalar
- zich tanachalar

-mikrofilamentlar

#Quyidagilardan hujayralararo birikmalar turlarini belgilang:

+oddiy birikmalar

+sinapslar

-Z - chiziq

-zich tanachalar

#Sariqlik xaltasining vazifalari:

+qon yaratuvchi funksiyasibor

+devorida birlamchi jinsiy hujayralar hosil bo'ladi

-ajratuv funksiyasi bor

-trofoblast hosil qiladi

#Sariqlik xaltasining funksiyasi va faoliyat ko'rsatish muddati:

+2 oy davomida faol

+qon yaratuvchi funksiyasi bor

-5-7 oy davomida faoliyat ko'rsatadi

-ajratuv funksiyasi bor

#Xorionga xos:

+yo'ldoshning xomila qismini hosil qiladi

+vorsinka stromasini biriktiruvchi to'qima hosil qiladi

-yo'ldoshning ona qismini hosil qiladi

-so'rg'ichlarni biriktiruvchi to'qimasi entodermadan hosil bo'ladi

#Xorionning tarkibi:

+qon tomirlar tutadi

+simplastotrofoblast tutadi

-detsidual xujayralari bor

-so'rqichlar qosil bo'lishida ektoderma ishtirok etadi

#Xorionga xos:

+trofoblast xosilasi

+yo'ldoshning bola qismini hosil qiladi

-xorion epiteliysi mezodermadan taraqqiy etgan

-yo'ldoshning ona qismini hosil qiladi

#Bir qavatli jiyakli epiteliy uchraydi:

+o't pufagida

+buyrak proksimal naychasida

-traxeyada

-buyrakning distal naylarida

#Bir qavatli jiyakli epiteliy qaysi a'zolari qoplaydi:

+ingichka ichakda

+yirik o't yo'llarida

-uruq olib chiquvchi naychalarda

-qinda

#Qaysi a'zolarining shilliq qavatida bir qavatli jiyakli epiteliy uchraydi:

+me'da osti bezining yirik chiqaruv naylari

- +o't pufagida
- buyrakning distal naylarida
- buyrakning yig'uv naylarida

#Qaysi a'zolarning shilliq qavati ko'p qavatli epiteliy bilan qoplagan:

- +og'iz bo'shliqini
- +qizilo'ngachni
- o't qopini
- me'dani

#Ko'p qavatli epiteliy quyidagi a'zoldan qaysilarini qoplagan:

- +qovuqni
- +siydik nayi
- bachadonni
- bronxlarni

#Murakkab bezlar qaysilar kiradi:

- +yirik so'lak bezlari
- +sut bezlari
- fundal bezlari
- bachadon bezlari

#Murakkab bezlarni ko'rsating:

- +me'da osti bezi
- +duodenal
- yog bezlari
- ter bezlari

#Quyidagilardan qaysi bezlar murakkab bezlarga kiradi:

- +qizilo'ngachning xususiy bezlari
- +duodenal
- me'da bezlari
- til so'lak bezlari

#Ekzokrin bezlar tuzilishiga ko'ra bo'linadi:

- +oddiy
- +murakkab
- merokrin
- golokrin

#Ekzokrin bezlar naylari tuzilishiga ko'ra bo'linadi:

- +tarmoqlangan
- +tarmoqlanmagan
- mikroapokrin
- makroapokrin

#Ekzokrin bezlar oxirlari tuzilishiga ko'ra bo'linadi:

- + alveolyar
- +naysimon
- oqsilli
- shilliq

#Bazofillarning donachalarida bo'ladi:

- +gistamin
- +geparini
- glikogen
- glyukogon

#Bazofillarning tuzilishini ko'rsating

- +yadro kuchsiz segmentlangan
- +yirik bazofil donachalargaega
- yadro taqasimon
- ko'p lizosoma tutadi

#Bazofillar – bu:

- +leykotsitlar umumiy sonining 0,5-1 % ni tashkil etadi
- +gistamin va geparin tutadi
- leykotsitlarning 5% ini tashkil etadi
- ko'plab glikogen donachalarini tutadi

#Granulotsitopoezda hujayralarda qanday o'zgarishlar yuzaga keladi:

- +rivojlanish davrida yadro shakli o'zgaradi
- +metamielotsit davrida bo'linish xususiyatini yo'qotadi
- mielotsit davrida bo'linish xususiyatini yo'qotadi
- rivojlanish davomida qujayralar qajmi yiriklashadi

#Granulotsitopoezda hujayralarda nimalar hosil bo'ladi:

- +mielotsit davrida ikkilamchi granulalar paydo bo'ladi
- +promielotsit davrida birlamchi granulalar paydo bo'ladi
- mieloblast davrida birlamchi granulalar paydo bo'ladi
- ikkilamchi granulalar promielotsit davrida paydo bo'ladi

#Granulotsitopoezda bo'ladigan jarayonlar:

- +metamielotsit qonga chiqa oladi
- +rivojlanish davrida yadro shaklio'zgaradi
- metamielotsit qonga chiqa olmaydi
- rivojlanish jarayonida yadro kattalashadi

#Siyrak tolali biriktiruvchi tuqima hujayralariga nimalar kiradi:

- +semiz
- +fibroblast
- osteoblast
- osteoklast

#Siyrak tolali biriktiruvchi to'qima hujayralarini belgilang:

- +plazmotsit
- +adipotsit
- osteotsit
- mieloblastlar

#Zich biriktiruvchi to'qimaning siyrak biriktiruvchi to'qimadan hujayraviy tuzilishiga ko'ra asosiy farqlari:

- +asosiy moddasi kam
- +asosiy hujayralari fibroblast va fibrotsitlar

-keng tarqalgan xujayrasi- makrofag
-hujayra turlari ko'p

#Elastik tog'ayining gialin tog'ayidan farqi quyidagilar:

+tiniq emas
+ohaklanmaydi
-asosiy moddasi gomogen tiniq
-tog'ay usti pardasi yo'q

#Tolali tog'ayga xos xususiyatlar:

+gialin tog'ay bilan chegaradosh
+toqay usti pardasi yo'q
-oqaklanadi
-tog'ay usti pardasi bor

#Qaysi xususiyatlar tolali tog'ay uchun xos:

+kollagen tolalar parallel tutamlar hosil qiladi
+umurtqalararo diskda joylashgan
-kekirdakda uchraydi
-hujayralararo modda kam

#Osteoklastlarga xos xususiyatlarni belgilang:

+bir nechta yadro tutadi
+katta o'lchamga ega
-ikki yadroli
-duksimon shaklli

#Osteoklastlarga xos ta'rifni ko'rsating:

+burmali hoshiyasi bo'ladi
+hujayra ichi tuzilmalari zonalar qosil qilib joylashgan
-sitoplazmaning butun yuzasi bo'yicha o'simtalari bor
-lipid kiritmalari ko'p

#Qaysi organellalar osteoklastlarda ko'p:

+mitoxondriyalar
+ lizosomalar
-ribosomalar
-silliq endoplazmatik to'r

#Osteotsitlarga xos ta'rif:

+suyak bo'shliqlarida joylashgan
+bo'linmaydilar
-bo'linishi mumkin
-suyak usti pardasining ichki qavatida joylashgan

#Osteotsitlarga xos ta'rif:

+o'simtali shaklga ega
+to'qima suyuqligi hisobiga oziqlanadi
-suyak plastinkalarida quruq bo'lib joylashadi
-yumaloq shaklda, o'simtalari bo'lmaydi

#Osteotsitlarga xos ta'rif:

- +organellari kam rivojlangan
- +hujayra markazi bo'lmaydi
- mitoxondriyalar, donador EPT ko'p
- hujayra markazi yaxshi rivojlangan

#Ko'ndalang-targ'il mushak to'qimasining tuzilishi:

- +mushak tolalaridan iborat
- +har bir mushak tolasi endomiziy bilan o'ralgan
- hujayra tuzilishiga ega
- har bir mushak tolasi perimiziy bilan o'ralgan

#Ko'ndalang-targ'il mushak to'qimasi:

- +miotomlardan hosil bo'ladi
- +mushak tolalaridan iborat
- yadrolari mushak tolalarining markazida joylashgan
- miofibrillalari uch o'lchamli to'r hosil qiladi

#Erkin nerv oxirlarini ko'rsating:

- +epiteliyda uchraydi
- +dendridning oxirgi tarmog'i
- aksonni so'nggi tarmog'i
- kapsula bilan o'ralgan

#Erkin nerv oxirlariga xos xususiyatlar:

- +epiteliyda uchraydi
- +sezuvchi epiteliotsitlar bilan aloqada bo'ladi
- plastinkasimon tanachalar tarkibiga kiradi
- aksonni so'nggi tarmog'i

#Qaysi hujayralar miyacha po'stloig'da uchraydi :

- +noksimon
- +yulduzsimon
- piramidasimon
- gorizontal

#Miyacha po'stlog'idagi hujayra turlari ko'rsating:

- +duksimon
- +Purkine hujayralari
- Bets hujayralari
- qadaxsimon

#Qaysi hujayralar bosh miyaning po'stlog'ida uchraydi:

- +duksimon
- +o'rgimchaksimon
- silindrsimon
- kubsimon

#Bosh miyaning po'stloqida hujayra turlari ko'rsating:

- +gorizontal
- +piramidasimon
- noksimon
- qadaxsimon

#Bosh miyaning qattiq pardasiga xos:

- +suyak usti pardasi bilan qo'shilib ketgan
- + to'rparda tomonidan yassi glial hujayralar bilan qoplangan
- subaraxnoidal bo'shliq xosil qiladi
- miya to'qimasiga tegib turadi

#Spiral a'zodan quyidagi hujayralar farqlanadi:

- +tukli
- +falangali
- bazal
- kiritma

#Spiral a'zoda farqlanadigan hujayralarni ko'rsating:

- +ustunli
- +tashqi chegaralovchi hujayralar
- glial
- neyrosensor

#Spiral a'zoda farqlanadigan hujayralarni belgilang:

- +Genzen hujayralari
- +tashqi chegaralovchi hujayralar
- neyroendokrin
- Panet hujayralari

#Muguz pardaga xos:

- +ikkita chegaralovchi plastinka
- +xususiy moddada tomirlar yo'q
- oldingi va orqa epiteliysi ko'p qavatli
- xususiy modda qon tomirlariga boy

#Muguz pardaga oid bo'lgan javoblarni ko'rsating:

- +oldingi yuzasida ko'p qavatli muguzlanmaydigan epiteliy
- +orqa yuzasida bir qavatli yassi epiteliy
- orqa epiteliy pigmentli
- tashqi qavati pigment hujayraga ega

#Qaysi javoblar muguz pardaga oid bo'lib hisoblanadi:

- +asosiy moddasi zich biriktiruvchi to'qimadan iborat
- +xususiy moddada tomirlar yo'q
- xususiy modda siyrak biriktiruvchi to'qimadan iborat
- xususiy moddada kapillyarlar to'ri bor

#Quyidagi hujayralardan to'r parda neyronlarini ajrating:

- +tayoqchalar
- +kolbachalar
- pseudounipolyar
- savatchasimon

#Qaysi hujayralar to'r parda neyronlariga xos:

- +bipolyar
- +ganglioz

- pseudounipolyar
- bazal

#Quyidagi hujayralardan to'r parda neyronlarini belgilang:

- +gorizontal
- +amakrin
- donador
- piramidasimon

#Yoy pardani xarakterlovchi javoblarni ko'rsating:

- +gavxar va muguz parda orasida joylashgan
- +silliq mushak hujayralarga ega
- oldingi tomoni pigment epiteliy bilan qoplangan
- oldingi tomoni ko'p qatorli epiteliy bilan qoplangan

#Yoy pardani xarakterlovchi javoblarni belgilang:

- +pigment hujayralarga boy
- +ko'z qorachig'ini kengaytiruvchi silliq mushaklar radial joylashgan
- orqa tomoni bir qavatli yassi epiteliy bilan qoplangan
- oldingi tomoni ko'p qavatli yassi epiteliy bilan qoplangan

#Qaysi javoblar yoy pardani xarakterlaydi:

- +stromasini siyrak biriktiruvchi to'qima tashkil qiladi
- +silliq mushak hujayralariga ega
- ko'zning dioptric sistemasiga mansub
- asosi zich biriktiruvchi to'qimadan iborat

#Eshituv qirrasini to'g'ri ta'rifini tanglang:

- +tayanch hujayralar tutadi
- +retseptor hujayralar tutadi
- qujayralar yuzasida otolit membrana joylashgan
- retseptor qujayralarning bazal yuzasida donachalar joylashgan

#Quyidagi javoblardan qaysilari eshituv qirrasini to'g'ri ta'riflaydi:

- +yarim aylana naylarining ampulyar qismida joylashgan
- +retseptor hujayralar tayanch hujayralar orasida joylashgan
- retseptor va effektor hujayralar tutadi
- chig'anoqning daxliz qismida joylashgan

#Eshituv qirrasini to'g'ri ta'rifini ko'rsating:

- +burchakli tevlanishlar retseptori
- +retseptor hujayralarning apikal yuzasida stereotsiliylar joylashgan
- chiziqli tevlanishni aniqlaydi
- bir qancha kinotsiliya tutadi

#Ko'zning kiprikli tanasiga to'g'ri ta'rifni ko'rsating: :

- +asosini kiprikli mushaklar tashkil qiladi
- +akkomodatsion apparatga mansub
- pigment hujayralar yo'q
- asosini zich biriktiruvchi to'qima tashkil etadi

Ko'zning kiprikli tana tuzilmaga xos ta'rif:

- +ko'z tomirli pardasining xosilasi
- +to'r pardaning siliar qismi bilan qoplangan
- tarkibida elastik tog'ay bor
- tashqi yuzasi bir qavatli yassi epiteliy bilan qoplangan

Ko'zning kiprikli tanasiga xos :

- +silliq mushak tutamlari orasida siyrak tolali biriktiruvchi to'qima bor
- + silliq mushak tutamlari orasida pigment hujayralari bor
- fibroz pardaning hosilasi bo'lib hisoblanadi
- pigment hujayralar yo'q

#Yoy parda qavatlarini bo'lib hisoblanadi:

- +oldingi epiteliy
- +orqa pigmentli epiteliy
- oldingi pigmentli epiteliy
- tomirsiz qavat

#Yoy parda qavatlarini ko'rsating:

- +tashqi chegaralovchi
- +ichki chegaralovchi
- to'rsimon
- tomir usti

#Yoy parda qavatlarini belgilang:

- +tomirli
- +orqa pigmentli epiteliy
- tomir usti
- so'rg'ichli

#Ta'm bilish piyozchalari:

- +til so'rg'ichlari epiteliysi da joylashgan
- +retseptor hujayralar epiteliy sensorlardir
- tayanch hujayralar retseptor hujayralar ostida joylashgan
- retseptor hujayralar nerv to'qimasiga kiradi

#Adenogipofizning xromofil hujayralariga kiradi :

- + somatotropotsit
- + mammotropotsit
- paratireotsit
- gonadotropotsitlar

#Qalqonsimon oldi bezining bosh hujayralari xususiyatini ko'rsating:

- +sitoplazmasi bazofil bo'yaladi
- +mitoxondriyalari kam
- sitoplazmasi oksofil bo'yaladi
- mitoxondriyalari ko'p

#Qalqonsimon bez oldi bezining bosh hujayralari xususiyati:

- +sekretor granular tutadi
- +oksifil hujayralarida ko'plab mitoxondriyalar bo'ladi
- sekretor donachalari yo'q
- yosh ulg'aygan sari soni ko'payadi

#Gipofizga bo'ysinadigan bezlarni ko'rsating:

- +qalqonsimon bez
- +buyrak usti bezining po'stloq moddasi
- buyrak usti bezining mag'iz moddasi
- qalqonsimon oldi bezi

#Qaysi bezlar faoliyati gipofizga bog'liq:

- +tuxumdon
- +urug'don
- so'lak
- ayrisimon

#Gipofizga faoliyatiga bog'liq bezlar:

- +sut bezi
- +qalqonsimon bez
- qalqonsimon oldi bezi
- ter bezi

#Qalqonsimon bezning parafolikulyar hujayralari joylashgan:

- +follikula devorida
- +follikulalar orasida
- tirotsitlar va bazal membrana orasida
- qon tomirlar devorida

#Qalqonsimon bezning parafolikulyar hujayralariga xos xususiyatlar:

- +follikulalar orasida joylashgan
- +kaltsitonin sintezlaydi
- qon tomirlar devorida joylashgan
- sekretini follikula bo'shlig'iga ishlaydi

Qalqonsimon bezning parafolikulyar hujayralari:

- +osmiofil donachalar tutadi
- +kaltsitonin sintezlaydi
- endoplazmatik to'r va Golji kompleksi sust rivojlangan
- follikulyar hujayralar bilan birga yodni yutadilar

#Buyrak usti bezi tutamli zonasining xususiyatlari:

- +glyukokortikosteroid gormonlar ishlaydi
- +endokrinotsitlar radial tasmalar hosil qiladi
- endokrinotsitlar to'r xosil qiladi
- adrenalin ishlaydi

#Buyrak usti bezining tutamli zonasi:

- +endokrinotsitlar mitoxondriyalarida kristalari naysimon
- +endokrinotsitlar radial tasmalar hosil qiladi
- gipofizga bog'liq emas
- endokrinotsitlar to'r hosil qiladi

#Gipofizning xromofob hujayralariga mos javoblarni belgilang:

- +eng ko'p miqdorda
- +adenogipofiz regeneratsiyasida ishtirok etadi

- barcha adenotsitlarning 20% ni tashkil etadi
- intensiv bo'yaladi

#Gipofizning xromofob hujayralariga xos xususiyatlar:

- +sekretor granulari yo'q
- +turli darajasida takomillashgan adenotsitlardan iborat
- neyrogipofizda joylashgan
- regeneratsiyaga uchramaydi

#Pastki kovak vena devoridagi qavatlarining rivojlanish darajasi:

- +tashqi qavatda mushaklar yaxshi taraqqiy etgan
- +ichki qavatida silliq mushak hujayralarining bo'ylama tutamlari mavjud
- tashqi qavatda silliq miotsitlar sirkulyar joylashgan
- ichki qavatda silliq mushak hujayralari yo'q

#Epikardga oid javoblarni belgilang:

- +mezoteliy bilan qoplangan
- +ko'plab qon tomirlar tutadi
- endoteliy bilan qoplangan
- perikard bilan zich birikkan

#Epikard:

- +tashqi kollagen tolali qavati bor
- +elatik tolali qavati mavjud
- ko'p miqdorda retikulyar tolalar tutadi
- bir qavat prizmatik epiteliy bilan qoplangan

#Kardiomiotsitlar orasidagi oraliq disklarda qanday hujayralararo birikishlar bo'ladi :

- +tirqishli tutashish
- +desmosomalar
- qulufli birikmalar
- oddiy birikmalar

